

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SATBAEV ATAĞULLA BAXÍTJAN ULÍ**

**S.IBRAGIMOV LIRIKASIDA LIRIK SUBYEKT VA LIRIK  
OBYEKTNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI**

**10.00.07 – Adabiyot nazariyasi,  
10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Satbaev Atagulla Baxitjan uli**

S.Ibragimov lirikasida lirik subyekt va lirik obyektning ifodalanish  
xususiyatlari..... 3

**Сатбаев Атагулла Бахытжан улы**

Особенности выражения лирического субъекта и лирического объекта в  
лирике С.Ибрагимова..... 27

**Satbaev Atagulla Bakhitjan uli**

Features of the expression of the lyrical subject and the lyrical object in the  
lyrics of S.Ibragimov..... 55

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 59

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SATBAEV ATAĞULLA BAXÍTJAN ULÍ**

**S.IBRAGIMOV LIRIKASIDA LIRIK SUBYEKT VA LIRIK  
OBYEKTNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI**

**10.00.07 – Adabiyot nazariyasi,  
10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil2361 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uzt.uz](http://www.ziyonet.uzt.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Orazimbetov Qanishbay Kelimbetovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Karimov Bahodir Nurmetovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Matimov Koshkarbay Genjebaevich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "30" 09 kungi soat 14<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25, e-mail: [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (361 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12" 09 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "12" 09 daqi 1 raqamli reestr bayonnomasi).



**Z.U.Bekbergenova**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi v.v.b., filol.f.d., professor

**J.O.Tanirbergenov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Z.U.Bekbergenova**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotida, ayniqsa, she'riyatda insonning ichki tuyg'ulari, uning ruhiy olami turli usullar yordamida ifodlanib kelinmoqda. Lirik subyekt va lirik obyekt inson ongi va qalbida kechayotgan ruhiy kechinmalarni, shoirning dunyoga bo'lgan munosabatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Dunyo, jumladan, turkiy xalqlar adabiyoshunosligida lirik subyekt va lirik obyektning ifodalanishi bo'yicha bir-biridan farqlanuvchi qarashlarni uchratamiz. Badiiy asar va uning tarkibiy qismlari, shoirlarning ijodiy laboratoriyasi, lirik subyekt va lirik obyekt masalasi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, qoraqalpoq adabiyotshunosligida bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ozchilikni tashkil etadi. Shu sababli ham milliy she'riyatimizda lirik subyekt va lirik obyektning ifodalanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslash talab etilmoqda.

Kelajak avlodni komil insonlar etib tarbiyalashda adabiyotga, ya'ni, badiiy so'zga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki, so'zning qudratiga yetadigan boshqa tarbiya vositasi yo'q. Bugungi kunda mamlakatimizda badiiy adabiyotga, kitobxonlik madaniyatini oshirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilgan<sup>1</sup>. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z nutqlarida «Inson qalbini, uning dard-u tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan siz, muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharaflı ekanini barchamiz yaxshi bilamiz»<sup>2</sup> degan edi. Shunday ekan, milliy adabiyotimiz tarixi bilan bir qatorda biz yashab turgan davrdagi zamonaviy adabiyot namoyandalarining ijodini o'rganish, hozirgi adabiy jarayonda yaratilayotgan badiiy asarlarga adabiy-tanqidiy nuqtayi nazardan baho berish zarurati paydo bo'lmoqda. Qoraqalpoq adabiyotining taniqli vakili Sag'inbay Ibragimov lirikasini, undagi obrazlar tizimini, mazmun va shakl, shuningdek individual uslubiy izlanishlarini o'rganish ham o'z tadqiqotini kutayotgan muhim vazifalar qatoriga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йыл 12-январьдағы «Китап өнимлерин басып шығарыў хэм тарқатыў системасын раўажландырыў, китап оқыўды хэм китапқумарлық мәдениятын арттырыў және үгит-нәсиятлаў бойынша комиссия дүзиў ҳаққында»ғы Бийлиги. // Еркин Қарақалпақстан, 2017, 13-январь; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йыл 13-сентябрьдеги «Китап өнимлерин басып шығарыў хэм тарқатыў системасын раўажландырыў, китап оқыўды хэм китапқумарлық мәдениятын арттырыў және үгит-нәсиятлаў бойынша комплексли илажлар бағдарламасы ҳаққында»ғы Қарары. // Еркин Қарақалпақстан, 2017, 14-сентябрь; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йыл 5-апрельдеги «Ўзбекистон Жазыўшылар аўкамының жумысын буннан былай да жетилистириў илажлары ҳаққында»ғы Қарары. // Еркин Қарақалпақстан, 2018, 7-апрель.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш халқимиз маънавий олами́ни юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир» мавзусида Ўзбекистон иждокор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2024-yil 1-apreldagi PQ-147-son "Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-son "2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Adabiyotshunoslik ilmda lirik asarlardagi qahramon masalasiga bag'ishlangan ilmiy ishlar juda ko'p. Ularda lirik subyekt, lirik qahramon, shoir obrazi, lirik "men", ijro lirikasi kabi masalalar bir qatorda o'rganilgan.

Jahon adabiyotshunosligida G.Gegel, V.Xalizev, G.Korte, Yu.Tinyanov, L.Ginzburg, M.Baxtin, A.Kaligin, B.Korman, Z.Qabdolov, T.Shapay kabi olimlarning asarlarida o'rganilgan, bahs-munozaraga va ziddiyatga ega tadqiqotlarda lirik subyekt va obyekt masalasi ham tahlil qilingan<sup>3</sup>.

O'zbek adabiyot nazariyasida taniqli adabiyotshunoslar I.Sulton, E.Xudayberdiyev, U.Hamdamiyov, S.Meli, D.Quronov ilmiy ishlarida bu masala bo'yicha atroflicha izlanishlar olib borilgan<sup>4</sup>.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida S.Axmetov, Q.Sultanov, K.Xudaybergenov, Q.Jarimbetov, Q.Orazimbetov, Q.Turdiboyev, P.Dabilov tomonidan milliy lirikamizda lirik qahramon yaratish mahorati o'rganilgan<sup>5</sup>.

<sup>3</sup> Гегель Г. Эстетика в 4-х томах. Том 3. – Москва: Искусство, 1971; Хализов В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999; Усы автор. Хализов В. Е. Лирика. // Введение в литературоведение. – Москва: Высшая школа, 2004; Кorte Г. Субъективность и лирическое Я. Постановка проблемы на примере поэтологий Готфрида Бенна, Томаса Клинга и Дурса Грюнбайна. // Zur Theorie des lyrischen Subjekts im Kontext der neueren Dichtung. Slavistik, 2015. – С. 16. [Электрон ресурс] <https://www.uni-trier.de> (24.06.2024); Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. – Москва: Наука, 1977; Гинзбург Л. О лирике. – Ленинград: Советский писатель Ленинградское отделение, 1974; Бахтин М. М. Автор и герой. К философским основам гуманитарных наук. – Санкт-Петербург: Азбука, 2000; Калыгин А. Ранний Бахтин: эстетика как преодоление этики. Эго-персонализм, лирический герой и единство эстетических теорий. – Москва: РГО, 2007. Корман Б.О. Избранные труды. Теория литературы. – Ижевск: Издательство Удмуртского университета, 2006; Қабдоллов З. Сөз өнері. – Алматы: Санат, 2007; Шапай Т. Шын жүрек – бір жүрек. – Алматы: Жазушы, 1999.

<sup>4</sup> Султан И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан, 1980; Xudoyberdiyev E. Adabiyotchunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007; Хамдамов У. Янги ўзбек шеърляти. – Тошкент: Адиб, 2012; Мели С. Сўзу сўз. «Адабиёт фалсафаси»га чизгилар... – Тошкент: Шарқ, 2017; Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy instituti, 2018.

<sup>5</sup> Ахметов С. Қарақалпақ совет поэзиясы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988. Султанов Қ. Инсан кудирети. – Нөкис: Билим, 1992; Худайбергенев К. Проблема лирического героя в современной каракалпакской

Lirik subyekt, lirik qahramon va lirik obyekt masalasi dissertatsiya ko‘lamida o‘zbek<sup>6</sup>, rus<sup>7</sup> va boshqa turkiy xalqlar<sup>8</sup> adabiyotida keng tadqiq etilgan.

поэзии. Диссертация кандидата филологических наук. – Ташкент, 1967; Усы автор. Лирика ҳам омир. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1971; Усы автор. Дəўир ҳам парыз. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1987; Jārimbetov Q. Ādebiyattanıwdan sabaqlar. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2012; Оразымбетов Қ. Таңдамалы шығармалар топламы. Еки томлық. I том. – Нөкис: Билим, 2018; Turdibaev Q. Házirgi qaraqalpaq poeziyasında janrlıq hám stillik izlenisler, qaharman problemi. – Nókis: Bilim, 2023; Дабылов П. Қарақалпақ поэзиясында лирикалық қахарман образының жасалыу өзгешеликleri (Т.Мəтмуратов хəм К.Рахмановтың поэзиясы мысалында). Филол. илимleri бойынша философия докторы (PhD) диссертациясы. – Нөкис, 2018. Usı avtor. Qaraqalpaq ádebiyatında lirikalıq qaharman koncepciyası (lirikalıq subyekt hám obyekt máselesi. – Tashkent: Bookmany print, 2024.

<sup>6</sup> Шейх-Заде М. Характер лирического героя и приёмы его раскрытия у Алишера Навои. Диссертация кандидата филологических наук. – Ташкент, 1948; Нарбаев Б. Правда жизни и лирический герой в современной узбекской поэзии (60-е-70-е годы). Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д.филол.н. – Ташкент, 1978; Абдукаримов Т. Зулфиянинг 70-80-йиллар ижодида лирик қахрамон тасвири. Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 1995; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърятida психологик тасвир маҳорати: Филол.фан.докт... дисс... автореф. – Тошкент, 1999; Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳармон талқини. Филол. фанлар. доктори...дисс. – Тошкент, 2008; Эргашева Ш.О. Саида Зуннунова шеърятida ижодкор шахсияти ва лирик қаҳармон муаммоси. Филол. фанлар. номз...дисс. – Тошкент, 2008; Хамдамов У. XX аср ўзбек шеърятi бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017; Барзиев О. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари ўзбек шеърятida давр муаммолари ва лирик қахрамон. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2020; Abdullayeva U. Yangi o‘zbek she‘riyatida ijroviy lirika poetikasi (Abdulla Oripov va Usmon Azim ijodi misolida) Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2023;

<sup>7</sup> Бобров А. Лирический субъект и характерные процессы в лирике 80-х годов. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Москва, 1989; Нгуен Тхи Бик Тху. Лирический герой в Советской и Вьетнамской поэзии: принципы изучения (На материале поэзии В. Маяковского и То Хыу). Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Москва, 1990; Петрушкевич А. Поэзия Д.Бичель-Загнетовой. Проблема лирического героя. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Минск, 1993. Перевалова С. Проблема автора в русской литературе 1970-1980-х годов. Автореферат дис. ... доктора филологических наук. – Волгоград, 1998; Мансков С. Поэтический мир А.А.Тарковского: Лирический субъект; категориальность; диалог сознания. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Барнаул, 1999; Бурцева Е. Субъективный пафос в лирике М.Ю. Лермонтова 1837-1841 гг. (проблемы поэтики). Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Самара, 2000. Ли Х. Системно-субъектный метод Б.О. Кормана (теория автора). Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Москва, 2000; Руденко С. Субъектно-объектные отношения в лирике В. Хлебникова. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Астрахань, 2002; Боровская А. Автор в структуре лирических произведений И.Анненского. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Астрахань, 2004; Романов И. Лирический герой поэзии И.Бродского: Преодоление маргинальности. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Москва, 2004; Малыгина Т. Авторское сознание в лирике К.М. Фофанова. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Москва, 2005; Волкова Н. Авторское «я» и «маски» в поэзии В.С.Высоцкого. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Тверь, 2006; Жилина М. Метасюжет судьбы лирического героя в поэзии С.А.Есенина: основные культурно-художественные коды и мотивные комплексы. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Омск, 2006; Соколова Д. Лирический субъект и персонажи в стихотворениях Н.С. Гумилева. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Москва, 2006; Монсеева А. Эволюция ролевой лирики на рубеже XIX - XX веков: формирование ролевого героя нового типа. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Пермь, 2007; Нурмухаммедов Р. Лирический субъект в поэзии Тимура Кибирова. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Москва, 2008; Чернякова М. Маяковского: аксиологические доминанты автора и лирического героя. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Магнитогорск, 2008; Штраус А. Проблема лирического героя в современной поэзии: новые тенденции 1990-х-2000-х годов. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Екатеринбург, 2009; Демиденко Е. Лирический герой в поэзии С.А.Клычкова: эволюция, художественная специфика. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Москва, 2013; Разумовская Е. Лирический герой и поэтическая традиция в новейшей отечественной поэзии. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Саратов, 2015.

<sup>8</sup> Шапаев Т. Қазақ поэзиясындағы лирикалық тулға проблемасы (80-жылдар). Филология ғылымдарының кандидаты ғылыми дәрежесін алу үшін дайындалған диссертацияның авторефераты. – Алматы, 1994; Хульчаева М. Поэтика Керима Отарова (художественные принципы утверждения лирического героя). Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д.филол.н. – Нальчик, 2003; Сабилов Р. Образ автора в поэзии Хасана Туфана. Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д.филол.н. – Казань, 2004; Öztürk V. Türk Şiirinin Romantik

Shoir S.Ibragimov she'riyati bir qancha dissertatsiya ishning obyekti bo'lgan va turli jihatdan o'rganilgan (bu haqida dissertatsiyaning I bobida batafsil so'z yuritilgan – S.A.). Biroq, shoir ijodi, lirik subyekt va obyekt yaratish mahorati bo'yicha adabiyotshunosligimizda maxsus tadqiqot yaratilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida asosiy tadqiqot yo'nalishi sifatida olib borilayotgan «Qoraqalpoq adabiyotini o'rganish va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari», «Hozirgi qoraqalpoq adabiyotining dolzarb masalalari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zamonaviy qoraqalpoq adabiyotida lirik subyekt va lirik obyektни ifodalash hamda poetik obraz yaratishning o'ziga xos xususiyatlarini shoir Sag'inbay Ibragimov lirikasi misolida o'rganishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

lirik subyekt va lirik obyekt masalasi bo'yicha nazariy qarashlarni aniqlab olish;

qoraqalpoq adabiyotshunosligida S.Ibragimov ijodining o'rganilganlik holatini tadqiq etish;

shoir ijodida lirik qahramon va poetik obraz yaratishning, lirik subyektning ruhiy-psixologik holatini ifodalashini, subyektiv va obyektiv munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

S.Ibragimov lirikasida shakliy izlanishlar va janr xilma-xilligi bo'yicha ilmiy qarashlarni asoslash;

qoraqalpoq she'riyatida muallif tinish belgilarining uslubiy maqsadda qo'llanilishini S.Ibragimov asarlari misolida tahlil etishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida S.Ibragimovning “Dalalar” (“Dasht”, 1982), “Besinshi máwsim” (“Beshinchi fasl”, 1986), “Jer menen aspannıń aralıǵında” (“Yer bilan osmonning oralig'ida”, 1990), “Tańlamalı qosıqlar” (“Tanlangan she'rlar”, 2016) va “Brno dápteri” (“Brno daftari”, 2021) kabi she'riy to'plamlari va vaqtli mutbuotda hamda internet tarmog'idagi ma'lum saytlarda e'lon qilingan she'rlari tanlandi.

**Tadqiqot predmeti** S.Ibragimovning ijodidagi lirik subyekt va lirik obyektning ifodalanish xususiyatlarini, ularning badiiy matndagi estetik xizmatini, subyektiv holat va obyektiv haqiqat o'rtasidagi poetik munosabatlarni tahlil qilishdan iborat. Shu jihatlar orqali shoirning individual badiiy olami, lirik

---

Kökleri: Abdülhak Hâmid'in Şiirinde Romantik Öznellik. Doktora Tezi. – Istanbul, 2010; Утяев А. Лирический герой современной башкирской поэзии. Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д.филол.н. – Уфа, 2011; Давлятова М. Эволюция лирического героя в поэзии М. Турсун-заде. Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д.филол.н. – Душанбе, 2011; Sarialioğlu K. Modern türk edebiyatında şiir ve felsefe ilişkisi. Doktora Tezi. – Istanbul, 2013; Ulus G. Orhan Veli şiirinde özne ve varoluş sorunsalı. Doktora Tezi. – Ankara, 2019; Хабибуллоева Н. Своеобразие лирического героя в таджикской и русской литературе первой половины XX века (на примере творчества А.Лахути и А.Ахматовой). Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д.филол.н. – Душанбе, 2023.



qahramonning ichki ruhiy dinamikasi va lirik obyektning lirik subyekt bilan bog‘liqlik darajalari aniqlandi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, struktural va postmodernistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

lirik subyekt va lirik obyekt o‘zaro dialektik aloqadorlikka ega bo‘lgan, lirikada bir-birini to‘ldiruvchi va muallifning ruhiy-psixologik holatini aks ettiruvchi adabiy-estetik kategoriyalar ekanligi misollar yordamida ochib berilgan;

S.Ibragimov ijodida lirik subyektning subyektiv fikrlar orqali muallif obrazi bilan birlashgan holda ramziy ma’nolar, til osti usullari, mikrosyujetlar yordamida berilishi, shoirning ijodiy laboratoriyasida tekstologik qayta ishlashlar asosida lirik qahramonning bir she’rda bir necha yo‘nalishda o‘zgarishi, tasavvuf ta’siridagi yoki meditativ tabiatdagi, modernizm va postmodernizm oqimidagi she’rlarda lirik qahramonning ifodalanishi bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan;

shoirning poetik obraz yaratish mahorati, lirik obyekt va obrazli atributlarning, ayniqsa, folklor, diniy-mifologik va ornitonimik obrazlarning lirik subyektning ruhiy-psixologik holatini ta’sirli ifodalashi, she’r g‘oyasini kuchaytirishi, fikr oqimini kengaytirishi va o‘quvchini badiiy matn bilan yaqinlashtirishi kabi badiiy-estetik funksiyalarni bajarishi aniqlangan;

S.Ibragimov she’riyatida uslubiy xususiyatlarga ko‘ra tez-tez qo‘llanilgan va matnga ekspressiv-emotsional, poetik va stilistik ma’no beruvchi tinish belgilari to‘plami bo‘lgan mualliflik punktuatsiyasining, ayniqsa, chiziqcha, qavs, so‘roq va undov belgilarining uslubiy-badiiy maqsadda mohirona foydalanilganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

lirik subyekt va lirik obyektning muallif bilan birga lirik qahramonning ichki kechinmalarini, badiiy g‘oyasini tasvirlab berishi misollar asosida ilmiy-nazariy asoslangan;

qoraqalpoq adabiyotshunosligida S.Ibragimov ijodining o‘rganilish tarixi, yo‘nalishi va yutuqlari hamda kamchiliklariga ilmiy sharh berilgan;

shoir ijodida qo‘llanilgan subyektiv qahramon va obyektiv obrazlarning ifodalanish xususiyatlari ochib berilgan va poetik obrazlar tasnif etilgan;

S.Ibragimov lirikasidagi shakliy izlanishlarga, modernistik qarashlarga ega asarlar tahlil qilinib, ijodiy o‘ziga xoslik, poetik mahorat kabi masalalarga aniqlik kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** hozirgi qoraqalpoq adabiyotshunosligida dolzarb bo‘lgan masalaning aniq qo‘yilganligi, fikr va nazariy qarashlarning tizimli yondashuvi, tahlillar va ulardan chiqarilgan xulosalarning barqaror va aniqligi, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar va metodlar orqali asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilishi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan isbotlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi qoraqalpoq adabiyotida lirik subyekt va lirik obyektning ifodalanish xususiyatlari bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlarni shakllantirish,

adabiyotning rivojlanishida lirik qahramon obrazi, poetik obrazlarning yaratilishi, adabiy matn tuzilishi, shakliy va individual uslubiy izlanishlar kabi masalalarni ilmiy-nazariy tahlil qilishda ilmiy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi. Ishda taqdim etilgan tadqiqot materiallaridan oliy o'quv yurtlarida monografiyalar, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, maxsus kurs yoki seminar darslarini o'tkazishda, shuningdek, o'rta maxsus ta'lim tizimi, umumta'lim maktablarining adabiyot o'qituvchilariga uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish imkoniyati bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalari hozirgi qoraqalpoq she'riyatida umumiy ijtimoiy qarashlarning badiiy adabiyotga oid xususiyatlarini shakllantirishda, shuningdek, "Adabiyot nazariyasi", "She'r nazariyasi", "Mustaqillik davri qoraqalpoq adabiyoti", "Hozirgi qoraqalpoq adabiyoti va adabiy jarayon" fanlaridan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda, S.Ibragimov adabiy portretini yaratishda tayyor manba, qo'llanma vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** S.Ibragimov she'riyatidagi lirik subyekt va lirik obyektning ifodalanishi masalasini o'rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

Lirik subyekt va lirik obyekt munosabatining o'ziga xosliklari, lirik qahramon va poetik obrazlar yaratishning psixologik asoslari yoritilgan ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 23-oktyabrdagi 492/1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, hozirgi qoraqalpoq she'riyatida lirik subyekt va lirik obyektning ifodalanishi borasidagi ilmiy-nazariy tahlillar takomillashtirilgan;

Qoraqalpoq she'riyatida lirik subyekt va lirik obyektning yaratilishida muallifning badiiy izlanishlari, lirik subyektning ruhiy-psixologik holatini tasvirlashdagi o'ziga xos xususiyatlari, S.Ibragimov she'riyatida poetik obrazlarning yaratilishi va tasniflanishi kabi masalalar bo'yicha erishilgan ilmiy natijalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasining yosh ijodkorlarga mo'ljallangan seminarlarda va mahorat darslarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 27-noyabrdagi 108-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yosh ijodkorlarning asarlarida lirik subyekt va lirik obyektning aks etishi, lirik qahramon va poetik obrazlarning yaratilishi bo'yicha ijodiy mahoratining oshishiga asos bo'lgan;

Hozirgi qoraqalpoq lirikasida lirik subyekt va lirik obyektning o'zaro munosabati, S.Ibragimov ijodida obyektiv obrazlar va ularning tasnifi, shakliy va janriy izlanishlari, individual uslubiga oid xulosalar Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining "Bilimlendiriwde reforma", "Ja'na kún" va "Ruxsiylik bostani" radio eshittirishlari orqali xalqqa yetkazilgan (Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining 2025-yil 4-martdagi 05-22/144-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada, keng jamoatchilikning lirik subyekt va lirik obyekt, S.Ibragimov lirikasidagi obyektiv obrazlar va ularning tasnifi bo'yicha tushunchalari shakllangan, eshittirishlarning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan holda yangi manba va ma'lumotlar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan, 5 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Ishning birinchi bobi "**Lirik subyekt va lirik obyektning nazariy asoslari**" deb nomlanadi. Bobning "**Lirik subyekt va lirik obyektga oid qarashlar**" deb nomlangan birinchi faslida jahon, rus va turkiy xalqlar adabiyotshunosligida lirik subyekt, lirik qahramon va lirik obyekt tadqiq qilinishi ilmiy-nazariy muammo sifatida tahlil qilinadi.

Lirika subyektiv fikrlarga asoslangan adabiy tur bo'lib, unda ijodkorning shaxsiy qarashlari bayon etiladi. Shu bilan birga insonning ichki kechinmalari, ruhiy holatini tasvirlashda shoirlar badiiy obrazlardan foydalanadi. Ba'zida shoirning o'zi ham obraz darajasiga ko'tarilib, asarning markazini egallaydi. Lirik subyekt "fikrning asosiy yetkazuvchisi va ijodkorning dunyoga munosabati"<sup>9</sup> sifatida ta'riflanib, u badiiy asarning asosiy qismi hisoblanadi. Har qanday asarning asosini subyekt tashkil etadi. Zero, asarning ijodkori bo'lmas ekan, badiiy asar ham dunyoga kelmaydi, muallif "badiiy ishlab chiqarish subyekt"<sup>10</sup> sifatida baholanadi. Ammo, yaratilgan barcha asarda muallif bo'lib, uning g'oyasi asarning asosini tashkil etadi. Bu fikrlarga hamohang yondashuvlarni taniqli qozoq adabiyotshunosi A.Tojiboyev aytib, «Lirik asarning mazmuni – obyektiv voqeaning rivoji emas, subyektning o'zi va subyekt orqali o'tadigan dunyolar»<sup>11</sup> deb yozadi.

Nemis faylasufi G.Gegel "Lirik poeziya" asarida lirikaning markaziy qahramoni asarni yaratuvchining o'zi, eng avvalo uning ichki dunyosi ekanligini tushuntirib,

<sup>9</sup> Поэтика. Словарь актуальных терминов и понятий. – Москва: Кулагиной: Intrada, 2008. – С. 113.

<sup>10</sup> Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999. – С. 35.

<sup>11</sup> Қабдолов З. Сөз өнері. – Алматы: Санат, 2007. – Б. 313.

badiiy adabiyotni turlarga ajratishda obyekt va subyekt kategoriyalariga asoslanadi, bunda uning subyektivligiga katta e'tibor qaratib, badiiy san'atni uch qismga bo'ladi:

1. Badiiy asar;
2. Uning yaratuvchisi bo'lgan subyekt;
3. O'sha asarni qabul qiluvchi subyektlar<sup>12</sup>.

Mashhur rus adabiyotshunosi V.Belinskiy ham «lirik subyekt» terminini qo'llab, “Odamni qiziqtirgan, to'liqlantirgan, shodlantirgan, qayg'uga solgan, zavqlantirgan, tinchlantirgan, tebratgan nima bo'lsa, qisqasi, subyektning ruhiy hayotini tashkil etgan hamma narsa, subyektning ichiga nima kirsas, unda nima paydo bo'lsa, shularning barchasini lirika o'zining qonuniy boyligi kabi qabul qiladi...”<sup>13</sup> degan fikrni yozadi. Olim K.Xudayberganov V.Belinskiyning fikrlarini quyidagicha talqin qiladi: “Belinskiy “Poeziyaning tur va janrlarga bo'linishi” maqolasida muallif subyektining konkret hayotiy materialga singib ketishini, lirikada esa hayotiy material muallif subyektiga yedirib yuborilishini aytgan edi. Demak, har ikki holatda ham hayotiy material va muallif subyekt o'zaro ajralmas birlikni saqlaydi”<sup>14</sup>.

Muallifning o'yidagi fikrlarni ochib berishda lirik qahramon obrazi katta xizmat o'taydi. Shuning uchun, lirik qahramon bilan shoir o'rtasidagi aloqani aniqlash har tomonlama ahamiyatga ega. Mashhur rus olimi V.Xalizev lirik qahramon muallif bilan yaqin aloqada bo'lib qolmay, ko'p hollarda u bilan birlashib ketishini yozadi<sup>15</sup>.

Lirik qahramon tushunchasi birinchi marta atama sifatida rus olimi Yu.N.Tinyanov tomonidan 1921-yili A.Blok ijodi haqida yozilgan ilmiy ishida qo'llanilgan bo'lsa<sup>16</sup>, lirik “men” termini undan ham oldinroq – 1910-yili nemis adabiyotshunosi Margerat Zusman tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan<sup>17</sup>. Lirik subyekt atamasi esa universal ma'noga ega<sup>18</sup>.

Rus olimi L.Ginzburg lirik qahramonda ma'lum bir masalalarga, his-tuyg'uga asoslangan muallif ongi bilan birlik bo'lishi lozim deb ta'kidlasa<sup>19</sup>, M.Baxtin lirik qahramonning muallif bilan aloqasi haqida shunday deydi: “Ichimizdagi insonning lirik obyektlashuvi o'zini-o'zi obyektlashtirishga aylanishi mumkin. Bu o'rinda qahramon va muallif bir-biriga yaqin, lekin muallif qo'l ostida transgrediya lahzalar ko'p bo'ladi va ular katta ahamiyatga ega”<sup>20</sup>. Bu holatda subyektning ruhiy holati, emotsional kayfiyati o'zgarishlarga uchraydi, bunda u bir necha psixologik holatga tushishi mumkin. Shu bilan birga muallifning haqiqiy makonda his qilgan, anglagan va qabul qilgan taassurotlari u yaratayotgan asar qahramonlariga ham o'tadi. Shubhasiz, bu muallif va lirik qahramon obrazlari bir-birini to'ldirish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

<sup>12</sup> Гегель Г. Эстетика в 4-х томах. Том 3. – Москва: Искусство, 1971. – С. 501.

<sup>13</sup> Султанов Қ. Инсан кудирети. – Нөкис: Билим, 1992. – Б. 46.

<sup>14</sup> Худайберганов К. Дəуир хэм парыз. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1987. – Б. 28.

<sup>15</sup> Хализов В. Е. Лирика. // Введение в литературоведение. – Москва: Высшая школа, 2004. – С. 158.

<sup>16</sup> Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. – Москва: Наука, 1977. – С. 118-119.

<sup>17</sup> Корте Г. Субъективность и лирическое Я. Постановка проблемы на примере поэтологий Готфрида Бенна, Томаса Клинга и Дурса Грюнбайна. // Zur Theorie des lyrischen Subjekts im Kontext der neueren Dichtung. Slavistik, 2015. – С. 16. [Электрон ресурс] <https://www.uni-trier.de> (24.06.2024).

<sup>18</sup> Хализов В. Е. Лирика. // Введение в литературоведение. – Москва: Высшая школа, 2004. – С. 158.

<sup>19</sup> Гинзбург Л. О лирике. – Ленинград: Советский писатель Ленинградское отделение, 1974. – С. 155.

<sup>20</sup> Бахтин М. М. Автор и герой. К философским основам гуманитарных наук. – Санкт-Петербург: Азбука, 2000. – С. 187.

Lirik qahramon va lirik subyekt masalasi bo'yicha o'zbek adabiyotshunosi I.Sulton<sup>21</sup>, D.Quronov<sup>22</sup>, U.Abdullaevaning<sup>23</sup>, rus adabiyotshunosi F.Kalgin<sup>24</sup>, A.Shtrausning<sup>25</sup>, qozoq adabiyotida Jarilg'apov va D.Omirbekovalarning<sup>26</sup>, qoraqalpoq adabiyotida lirik qahramon yaratish masalasini maxsus tarzda o'rgangan K.Xudaybergenov<sup>27</sup>, Q.Orazimbetov<sup>28</sup>, Q.Jarimbetovlarning<sup>29</sup> ilimiy ishlarida ham so'z yuritilgan. Xususan, lirik qahramonni o'rgangan qozoq olimi T.Shapay: «Lirik poeziyadagi bu fenomenni (lirik qahramonni – S.A) lirik “men”, subyekt, xarakter, lico (лицо), lichnost (личность), geniy, dvoynik (двойник), geroy (герой), personaj, shoir, shoirlik “men”, shoir obrazi – mayli, qanday atasa ham bularning har biri lirik shaxs ma'nosini har tomondan to'ldirib, tushuntirib turgan terminlar»<sup>30</sup> deb yozadi.

Filologiya fanlari doktori Q.Turdibaev “Hozirgi qoraqalpoq she'riyatida janr va uslubiy izlanishlar, qahramon muammosi” monografiyasida “Shoir subyektidan o'tkazilgan, shu subyektga singdirilib yuborilgan his-tuyg'ular, emotsiyalar gammasi eng asosiy o'rinlarda turadi. Boshqacha aytganda, lirik qahramon his-tuyg'ulari alohida inson taqdiri, umuman jamiyat uchun muhim bo'lgan g'oyalarni o'rtaga tashlashga xizmat qiladi»<sup>31</sup> deb lirik subyektning adabiy asardagi xizmati haqida o'z qarashlarini bildiradi. Qoraqalpoq adabiyotshunosligida lirik qahramon masalasi maxsus tarzda P.Dabilov tomonidan tadqiq etilgan va u o'z dissertatsiyasida “...shoirning bir o'ziga emas, balki ko'pchilik odamlarga xos bo'lgan fikr-mulohaza va his-tuyg'ularni aks ettiruvchi umumlashgan va individuallashgan qahramon obrazi – lirik qahramon obrazi deb ataladi»<sup>32</sup> deb yozadi. 2024-yilda nashr etilgan monografiyasida olim lirik qahramon va lirik subyekt o'rtasidagi aniq chegarani ko'rsatadi: lirik subyektни har qanday lirik asarda ko'rinadigan, ammo hali har tomonlama to'liq ochilmagan obraz deb baholasa, lirik kompozitsiyada har tomonlama yetuk, tugallangan obrazni lirik qahramon deb ataydi<sup>33</sup>.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligi paydo bo'lganidan to bugungi kunga qadar lirik subyekt termini juda kam foydalanilgan, lirik qahramon atamasi esa keng miqyosda

<sup>21</sup> Султан И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 253.

<sup>22</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy instituti, 2018. – Б. 386.

<sup>23</sup> Abdullayeva U. Yangi o'zbek she'riyatida ijroviy lirika poetikasi (Abdulla Oripov va Usmon Azim ijodi misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2023. – В. 24.

<sup>24</sup> Калыгин А. Ранний Бахтин: эстетика как преодоление этики. Эго-персонализм, лирический герой и единство эстетических теорий. – Москва: РГО, 2007. – С. 29.

<sup>25</sup> Штраус А. Проблема лирического героя в современной поэзии: новые тенденции 1990-х-2000-х годов. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Екатеринбург, 2009. – С. 6.

<sup>26</sup> Жарылғапов Ж.Ж., Омирбекова Д.Ш. Қазақ әдебиетіндегі лирикалық проза. // Вестник Карагандинского университет. Серия «Филология». 2020, №2(98). – Б. 65.

<sup>27</sup> Худайбергенов К. Проблема лирического героя в современной каракалпакской поэзии. Диссертация кандидата филологических наук. – Ташкент, 1967.

<sup>28</sup> Оразымбетов Қ. Таңдамалы шығармалар топламы. Еки томлық. I том. – Нөкис: Билим, 2018. – Б. 19-21.

<sup>29</sup> Jarimbetov Q. Adabiyattaniwdan sabaqlar. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2012. – В. 37.

<sup>30</sup> Шапай Т. Еки томдық таңдамалы шығармалар жыйнағы. 1-том. – Алматы: Арда+7, 2017. – Б. 365.

<sup>31</sup> Turdibaev Q. Házirgi qaraqalpaq poeziyasında janrlıq hám stillik izlenisler, qaharman probleması. – Nókis: Bilim, 2023. – В. 41.

<sup>32</sup> Дабылов П. Қарақалпақ поэзиясында лирикалық қаһарман образының жасалыу өзгешеликleri (Т.Мәтмуратов хәм К.Рахмановтың поэзиясы мысалында). Филол. илимleri бойынша философия докторы (PhD) диссертациясы. – Нөкис, 2018. – Б. 23.

<sup>33</sup> Dabilov P. Qaraqalpaq adabiyatında lirikalıq qaharman koncepciyası (lirikalıq subyekt hám obyekt máselesi). – Tashkent: Bookmany print, 2024. – В. 197.

qo'llanilib kelinmoqda. Albatta, bu terminologik atamalarning aniq qoidasi bilan qabul qilishimiz maqsadga muvofiq. Bu jihatdan tadqiqotchining fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz. Biroq, bu ikki adabiy tushunchani bir xil sifatga ega deb qabul qiluvchi (Yu.Lotman, V.Vinogradov, T.Shapay, Q.Jarimbetov) va bir-biridan farq qiladigan funksiyalarga ega deb hisoblovchi (M.Baxtin, V.Shklovskiy, D.Quronov, P.Dabilov) adabiyotshunoslar bor. Uzoq davrlardan buyon bahsli masala bo'lib kelayotgan bu qarashlarning aniq yechimi yo'q. Chunki, har bir olimning ilmiy yondashuvlari, taklif etgan konsepsiyalari nazariy asoslarga ega. Biz bu tadqiqotimizda lirik subyekt va lirik qahramonni bir xil ma'noga ega tushunchalar deb qabul qilishni ma'qul ko'rdik. Sababi, bizning dissertatsiya ishimizning obyekti bo'lgan S.Ibragimovning ko'pchilik she'rlari modernistik, postmodernistik yo'nalishda yozilgan, ammo bunday asarlarda lirik subyekt va lirik qahramon o'rtasidagi farqlarni aniq ko'rish qiyin, shoir asarlarining aksariyatida ular bir butunlikka ega bo'lib birlashib ketgan. Shuningdek, lirik subyektda ham, lirik qahramonda ham muallifning individualligi va ichki kechinmalari umumiy tarzda bo'ladi. Shoirning botiniy dunyosi, his-tuyg'ulari ifodalanganligi sababli, ko'p hollarda ular bir-biri bilan ajratib bo'lmaydigan darajada bir butun hodisaga aylanadi. Ayniqsa, individual, romantik va meditatif yo'nalishdagi she'rlarda bu yaqqol ko'rinadi.

Shoir badiiy ijod jarayonida – katarsis holatida nazariy talablar chegarasida harakat qilmaydi, u faqat qahramon yaratadi va o'z kechinmalarini o'sha qahramonning vujudiga singdiradi, natijada subyektiv nuqtayi nazar bilan to'qima, ijodiy obraz funksiyalari uyg'unlashib, muallifning shaxsiy tuyg'ulari bilan mustahkam bog'lanib ketadi.

Yana bir sabablardan biri sifatida shuni aytib o'tish mumkinki, yuqoridagi terminologik atamalarning ma'no-mazmunini ajratmasdan, ildizi bir deb tushunish badiiy asarni anglashga ham yengillik beradi. Chunki, lirik subyekt bilan lirik qahramon she'ning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Ularni alohida komponentlar sifatida ajratish faqat ilmiy-fundamental asarlar uchun xarakterlidir. Bunday deyishimizning sababi – bugungi globallashtirilgan jamiyatda ijodkor – obraz – o'quvchi diskursi asarni tushunish, his qilish maqsadi doirasida birlashadi va refleksiya (o'z ruhiy holatini tahlil qilish) jarayonida ishtirok etadi. Demak, badiiy asarda yuqoridagi uchlikning birligi saqlansa, asarning ta'sir kuchi kengayadi. Shu asoslarga tayanib, biz lirik subyekt va lirik qahramon tushunchalarini S.Ibragimov ijodini o'rganishda bir atama sifatida tahlil qilish tarafdorimiz.

Lirik subyektning his-tuyg'ularini aks ettirishda lirik obyekt katta ahamiyatga ega. Chunki, u lirik qahramonning ichki kechinmalarini ta'sirli tarzda yetkazib beradi. Shu sababli ham subyekt va obyekt munosabati lirik asarning ta'sir kuchini kengaytiradi va shoirlarning falsafiy-estetik qarashlarining xilma-xilligi ularning lirikasida subyekt-obyekt munosabatlarining o'zgaruvchanligini shakllantirishga yordam beradi. Bu haqda professor U.Hamdorov shunday yozadi: "Shoir tasvirlashda tasvir obyekti bilan fikr-mulohazalari o'rtasida doimo ko'zga tashlanavermaydigand analogiyalarga tayana boshladi, badiiy ongda metaforik, assotsiativlik kuchayib bordi. Atrof-muhit analogiyalarga to'la bo'lganligi uchun ham

obyekt tavsifi subyekt ko'nglidagini ham, xayolidagini ham aks ettiraveradi"<sup>34</sup> deb yozadi.

Xulosa qilib aytganda, lirik obyekt "shoir ilhomining uyg'onishi, she'rning yozilishi, dunyoga kelishi uchun asos (turtki) bo'ladi"<sup>35</sup>.

Birinchi bobning ikkinchi fasli "**Sag'inbay Ibragimov lirikasining qoraqalpoq adabiyotshunosligida o'rganilishi**" deb nomlanib, S.Ibragimov ijodi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga munosabat bildirilgan, sharhlangan.

Qoraqalpoq she'riyatida boshqalarga o'xshamagan ijodiy yo'li, mazmun va shakl bo'yicha izlanishlari, ko'p xillikka ega asarlar to'plami bilan ajralib turadigan shoirlarning biri – Sag'inbay Ibragimov. Shoir lirikasi bo'yicha tanikli adabiyotshunoslar va yosh tadqiqotchilar tomonidan adabiy va ilmiy-nazariy maqolalar, tezislari yozilgan. Ayrim dissertatsiya hajmidagi ilmiy ishlarda asosiy tadqiqot obyektlaridan biri sifatida tanlab olingan. Ularda S.Ibragimov she'riyatining g'oyaviy-tematik, shakliy va badiiy xususiyatlari o'rganilgan.

Professor S.Axmetov<sup>36</sup>, docentlar T.Mambetniyazov<sup>37</sup>, B.Genjemuratovlar<sup>38</sup> S.Ibragimov ijodi bo'yicha dastlabki tanqidiy fikrlarni yozdi.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida lirika janrini keng tarzda o'rgangan olimlardan biri professor Q.Orazimbetov bo'lib, u milliy she'riyatimizning she'r tuzilishi, lirikada tashqi va ichki shakl, mazmun va shakl birligi bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib bordi. Olim shoir ijodi haqida shunday yozadi: "S.Ibragimovning she'riyatining eng xarakterli tomoni u odamlarning qabul qilishi uchun juda murakkab bo'lishi bilan birga she'rlarining sintaktik tarkibi tub-tomiridan farq qiladi"<sup>39</sup>. Bu kabi shoirning individual uslubiy xususiyatlari haqidagi qarashlar olim tomonidan nazariy fikrlar yordamida batafsil tahlil qilingan.

S.Ibragimov ijodi bugungi kunga qadar bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining asosiy obyekti bo'lib, ilmiy yo'nalishda keng tarzda tadqiq etildi. Qoraqalpoq lirikasidagi janrlarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan keng ko'lamli ilmiy ishlarda biz tahlil qilayotgan shoir – S.Ibragimov ijodi haqida ham so'z boradi. Bobning bu faslida shoir ijodi tadqiq etilgan ilmiy-publitsistik maqola va tezislarga, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalar tahlil qilindi va S.Ibragimov ijodining tadqiq etilish darajasi bo'yicha xulosalar berilgan.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligidagi mazmun va shaklga, lirik janrlar, shoirlarning uslubiy xususiyatlariga oid ilmiy ishlarda S.Ibragimov she'riyati turli yo'nalishda o'rganildi. Biroq, bunday tadqiqotlarda shoir ijodi maxsus tarzda emas, umumiy ko'lamda, boshqa ijodkorlar bilan bir qatorda o'rganildi. Shoir lirikasining katta tadqiqotlarga obyekt bo'la oladigan darajada professionalizmga ega ekanligini hisobga olsak, S.Ibragimov she'riyatini alohida, fundamental tadqiq etishni taqozo

<sup>34</sup> Хамдамов У. Янги ўзбек шеърляти. – Тошкент: Адиб, 2012. – Б. 260.

<sup>35</sup> Dabılov P. Qaraqalpaq ádebiyatında lirikalıq qaharman koncepciyası (lirikalıq subyekt hám obyekt máselesi). – Tashkent: Bookmany print, 2024. – B. 22.

<sup>36</sup> Ахметов С. Дəўир, əдебият хəм талап. // Əмиўдərья. 1987. №5. – Б. 88-89.

<sup>37</sup> Мамбетниязов Т. Қосық жазыў аңсат емес... // Əмиўдərья. 1991. №11. – Б. 118.

<sup>38</sup> Генжемуратов Б. Поэзия – бул илахий дунья... // Əмиўдərья. 1991. 11-сан. – Б. 121-125.

<sup>39</sup> Оразымбетов Қ. Таңдамалы шығармалар топламы. Еки томлық. I том. – Нөкис: Билим, 2018. – Б. 136.

etadi. Bu esa bizning milliy adabiyotshunosligimizda bajarilishi zarur masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Lirik subyekt va lirik obyektning ifodalanish xususiyatlari”** deb nomlanadi. Uning birinchi faslida **“Sag‘inbay Ibragimov she‘riyatida lirik qahramon obrazi”** masalasi atroflicha tahlil qilindi.

Shoir Sag‘inbay Ibragimov she‘riyati murakkab fikrlarga qurilganligi, metaforik obrazlarning mahorat bilan yaratilishi bilan zamondosh ijodkorlarning asarlaridan farqlanib turadi. Undagi lirik qahramon obrazi turli sifatlarga ega. U ba‘zan qotib qolgan dardlarga ega bo‘lsa, ba‘zan insonni tafakkur zanjirlariga bog‘laydi, ba‘zan hayotdan anglagan haqiqatlarini oshkor etadi. Shu sababli ham shoir lirikasida subyektiv qarashlarning ishonchli tarzda ifodalanganligini anglaymiz.

Kewlim kóp buzıldı bul kóshelerde –  
óзимнен де boldı, ózgelerden де...

Tazı bolar túlki zamanında men  
qıyalıy hám epsız qálemkesh boldım<sup>40</sup>.

Bu qatorda shoirning o‘z taqdirining bir parchasi tasvirlanib, u so‘z san‘atining mashaqqati, shoirlikning qiyin yo‘li haqida hayotiy tajribasi bilan o‘rtoqlashadi. Muallif obrazi lirik subyekt bilan uyg‘unlashib ketganligi bois, she‘r o‘quvchida alohida taassurot qoldiradi. Bu kabi she‘rlarda “lirik qahramon bir vaqtning o‘zida ham subyekt, ham obyekt vazifasini bajaradi”<sup>41</sup>. «Usı azaplardan tuwılǵan sózler // esken jeldiń múlki bolıp qaladı» degan satrlar bilan she‘rga yakun yasalgan va shu satrning o‘ziyoq hozirgi jamiyatimizdagi kitobxonning badiiy adabiyotga bo‘lgan munosabatini ochib bergan. Chunki, so‘nggi innovatsion yangiliklar, ko‘p funksiyali smartfonlar ta‘sirida insonlarning kitoblardan uzoqlashgani hech kimga sir emas.

S.Ibragimov poetik asarlarining asosiy ko‘pchiligida lirik qahramon yo‘l yuradi, yo‘l ustida o‘y suradi yoki yo‘l izlaydi. Shoir ijodida yo‘l ramziy ma‘no kasb etib, oddiy hayotimizdagi yo‘llar hayot yo‘llari bilan kesishib ketadi. Shoirning «Seni, Yurmaladan qaytgan yo‘ldagi» (“Seni, Yurmaladan qaytqan joldağı”), “Bordir yo‘limda bir vafodor yor” (“Bardur jolımda bir wapadar yar”) (“Dasht” (“Dalalar”), 1982), “Yo‘llar Oltoy tog‘lariga olib boradi” (“Jollar Altay tawlarına alıp baradı”) (“Beshinchi fasl” (“Besinshi máwsim”), 1986), “Tunga qolgan yo‘lovchi” (“Túnge qalǵan jolawshı”), “O‘yli-balandli yo‘llar” (“Oylı-bálentli jollar”), “Bu yo‘lda aqlning hukmi yurmas” (“Bul jolda aqlıdıń húkimi júrmes”), “Yo‘l o‘rtasi” (“Jol ortası”) (“Tanlangan she‘rlar” (“Tańlamalı qosıqlar”), 2016), “Tangrim meni shu yo‘lga tanladi” (“Táńrim meni usı jolǵa tańladı”), “To‘g‘rilik yo‘li” (“Tuwrılıq jolı”) (“Brno daftari” (“Brno dápteri”), 2021) turkumlarida yo‘lovchining turfa histuyg‘ulari, hasrati bilan qo‘shib armonli dunyoda anglagan haqiqatlari bayon etiladi. Haqiqatdan ham, azaldan yo‘l inson hayotining badiiy so‘zdagi ramzi bo‘lib kelgan, shunday ekan undagi har bir inson – yo‘lovchi va ular manzillardan-manzillarga qarab intiladi, yangidan-yangi yo‘nalishlarga, taraflarga shoshiladi. Shoir S.Ibragimov bu hayotiy qonuniyatni nozik tuyg‘ular bilan uyg‘unlashtirib bera olgan. Unda yo‘lning

<sup>40</sup> Ибрагимов С. Таңдамалы қосықлар. – Нөкис: Билим, 2016. – Б. 156.

<sup>41</sup> Сабиров Р. Образ автора в поэзии Хасана Туфана. Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д.филол.н. – Казань, 2004. – С. 25.



yarmiga kelib, tushkunlikka tushib turgan lirik qahramon ham, aksincha yashashga ishtiyoqmand inson obrazi ham yaratilgan va uning tilidan bayon etilgan she'r barchaning yuragida hayot kechirishga bo'lgan intilishni paydo etadi.

Sag'inbay Ibragimov ijodida tekstologik xususiyatlar tez-tez ko'zga tashlanadi. O'z navbatida bu lirik qahramonning ruhiy tasviriga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Chunki, she'rdagi shakliy va lug'aviy tarkibdagi o'zgarishlar lirik subyektning ruhiy holatini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoirning 2016-yili nashrdan chiqqan "Tanlangan she'rlar" kitobida undan avvalgi yillarda nashr etilgan "Dasht" (1982), "Beshinchi fasl" (1986) va "Yer bilan osmonning oralig'ida" (1990) kitoblarida she'rlarining ko'pchiligi butunlay o'zgarishga uchragan bo'lsa, ayrim asarlari tanlangan asarlar qatoriga kiritilmagan. Shoirning ijodiy laboratoriyasidagi bu kabi qayta ishlashlar natijasida asarning qimmati ancha oshgan, lirik qahramonning ruhiy-psixologik evolyutsiyasi takomillashtirilgan. So'nggi davrda yozilgan asarlari ilgari yillardagi asarlaridan g'oyaviy-tematik jihatdan farqlanadi. Avvalgi falsafiy, intellektual she'riyat o'rnini diniy pand-nasihat, didaktik mazmundagi she'rlar egallagan va muallifning yosh xususiyatiga, olamni anglash darajasiga ko'ra lirik qahramonning ruhiy chegaralarida o'zgarishlar yuz bergan hamda ko'pchilik she'rlar tekstologik o'zgarishlarga uchragan. Buning natijasida lirik subyektning munosabatida ham yetarlicha farqlar yuzaga kelgan.

S.Ibragimovning lirik qahramonlari bir-biriga parallel bo'lgan xarakterlarga ega. Shu sababli ham shoir ijodini aniq bir "izm"ga kiritish qiyin. Bizningcha, eng yaxshi asar – bu qancha odam o'qisa, shuncha tasavvurga ega bo'ladigan, o'zgaruvchan fikr to'liqliniga ega asar. Biz tahlil qilayotgan shoir ijodi mana shunday xususiyatga ega: ularni o'qigan odamning o'z anglaganlari, o'z haqiqati bor. Shuning uchun, shoir asarlari bir qarashda tushunarsiz tuyulishi mumkin. Ammo, bu shoirning rebus she'r yozgani degani emas, bu kitobxonlarning bir-biri bilan (ba'zida insonning o'z-o'zi bilan) fikr to'qnashuvlaridir.

Bobning bu faslida S.Ibragimov ijodida lirik subyektning subyektiv fikrlar orqali muallif obrazi bilan birlashgan holda ramziy ma'nolar, til osti usullari, mikrosyujetlar yordamida berilishi, shoirning ijodiy laboratoriyasida tekstologik qayta ishlashlar asosida lirik qahramonning bir she'rda bir necha yo'nalishda o'zgarishi, tasavvuf ta'siridagi yoki meditatif tabiatdagi, modernizm va postmodernizm oqimidagi she'rlarda lirik qahramonning ifodalanishi bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan. Shoir ijodi zamondosh qoraqalpoq va o'zbek shoirlari ijodi bilan taqqoslangan.

Xulosa qilib aytganda, S.Ibragimov she'riyatida lirik qahramon obrazini yaratishda hayotiy tajribasi, ko'ngil kechinmalari, egallagan bilim va ko'nikmalari, dunyoni anglash haqidagi falsafiy xulosalari badiiy manba vazifasini bajargan. Shu sababli shoir she'rlaridagi lirik qahramonlar dunyoviy hodisalarga, ijtimoiy muhitga falsafiy va didaktik qarashlarini ifodalash mahorati bilan ajralib turadi.

Bobning **"Obyektiv obrazlarning lirik subyekt va lirik obyektga munosabati"** deb nomlangan ikkinchi faslda S.Ibragimov lirikasidagi poetik obraz yaratish mahorati obyektiv obrazlar misolida o'rganildi.

Shoir ichki his-tuyg'ularini ifodalashda obyektiv obrazlardan unumli foydalangan. S.Ibragimov she'rlari intellektual poeziyaning namunalari hisoblanib,

ichki kechinmalarni metaforalar, ramziy obrazlar va timsollar orqali qiyoslab tasvirlaydi. Chunki, “poeziyaga obraz sifatida kiradigan obyektlar vaqt o‘tishi bilan ramzga aylanadi”<sup>42</sup> va lirikaning hissiy kuchiga alohida sifat beradi. Bu jihatdan u boshqa ijodkorlarda uchramaydigan, o‘ziga xos sifatga ega obrazlar yaratdi. Ijodkorning obrazlar galereyasida turli poetik obrazlarning qo‘llanilganligini ko‘ramiz va ularni quyidagicha tasnifladik: folklor obrazlari, diniy-mifologik obrazlar, vaqt obrazlari, tarixiy obrazlar va ornitonimik obrazlar.

*Folklor obrazlari.* Ko‘pchilik shoirlar o‘z g‘oyalarini ta’sirli qilib bayon etishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining syujetlari, motivlari va obrazlaridan foydalanadilar.

S.Ibragimov ham qoraqalpoq xalq og‘zaki adabiyotini yaxshi biladi. Shuning uchun ham u folklordagi obrazlarni samarali qo‘llaydi. Biroq, shoir ularni shu holida o‘zgartirmasdan, ularga xos bo‘lgan xarakterni, psixologiyani lirik qahramonning ichki holatini tasvirlashda yordamchi obyekt sifatida qo‘llagan. Lirik subyektning ruhiy holatini ochib berishda folklor motivlari va obrazlaridan samarali foydalanilgan.

Bul tilsimli sandiq – kewil sarayim,  
Bir joyqin kúsh onda bántli boladı.  
Bir duwa bar – onı oqısań bul maqluq  
Shabadı aydarha bolıp... Tolısqan...<sup>43</sup>

Bunda inson ko‘nglini sandiqqa o‘xshatib satrlar go‘zalligini oshirgan. Ammo, magik kuch sifatida qaraladigan duo detali ham qo‘shiqda samarali foydalanilib, u sehrli kuch sifatida ko‘ngildagi maxluqni (bizningcha dardlar) ajdahoni paydo qilishi, ikkinchi duo o‘qilsa, ko‘k kabutar tushiga kirishi berilgan. Bunday jonivorlarga aylanish motivi ko‘pchilik ertak va doston asarlarida uchraydi. Doston personajlarining nomlari orqali insonlarning turli fe‘l-atvori (Kenjembayday sotqin, ikkiyuzlamachilar, Nuriddinday mard, saxiy insonlar) hamda uning inson taqdiriga munosabati masalasi ko‘tarilgan. Shuningdek, she‘r markazida turkiy til haqidagi muallif g‘oyasi turib, tilning badiiyati yuksak, boy xazinaga ega ekanligi she‘riy satrlarga singdirib yuborilgan. She‘rdagi lirik subyektning ruhiy bezovtaligi, ichki bezovtaligi, ramziylik, metaforik obrazlar (ajdar, ko‘k kaptar, yovvoyi), madaniy mifologiyaga tayanish (turkiy til, Soppasli Sipira jirov, Alpomish), “men”ning chuqur refleksiyasi modernizm poetikasiga to‘liq mos keladi. Ammo, ayrim parodiyaviy taglikning borligi (masalan, Kenjembay – milliy arxetipni ironiya bilan atash), belgilar bilan “o‘ynash” (sandiq, duo, kabutar, ajdarho) bilan bir-biriga havola qilib berilishi, ma‘noning noaniq siljishli tarzda berilishi, matndagi “ma‘noning qulashi”ning (dekonstruksiyaning) oz bo‘lsa ham borligini poststrukturalizmning belgilari deb hisoblashga bo‘ladi.

*Diniy-mifologik obrazlar.* Bugungi qoraqalpoq zamonaviy she‘riyatida ham mifologik elementlarga ijodiy yondashgan holda yangidan-yangi asarlar yozilmoqda. “Muallif mifologik kodlarning ramziy-shartli talqini yordamida tasvirlanayotgan voqea zamiridagi ijtimoiy-ruhiy muammolarga va qahramon ruhiyatining murakkab qatlamlariga badiiy tahlil qila oladi”<sup>44</sup>. Shuning uchun so‘nggi davrlarda ko‘p

<sup>42</sup> Arı R. Eşyadan sanat: Klasik Türk Şiirinde Eşya. // Şiir kuran nesneler. – Ankara: Hece yayınları, 2019. – S. 27.

<sup>43</sup> Ибрагимов С. Таңдамалы қосықлар. – Нөкис: Билим, 2016. – Б. 6.

<sup>44</sup> Отажанова М. Ҳозирги ўзбек насрида мифологизм. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – Б.23.

tarmoqli ijtimoiy ong shakllanib, yozma adabiyot rivojlangandan so'ng mifologik obrazlar adabiyotga ko'chdi. Bunday tasvirlar zamonaviy shoirlar ijodida ham ko'zga tashlanmoqda. Masalan, S.Ibragimov she'rlariga e'tibor qarataylik:

Qay bir ápsana Quda ázelde  
aramızda bolǵan deliner.

...Al babalar, usı búgingi  
óзимizdiń babalarımız,  
jik joq jerde jiklene bergen,  
oń-solınan aljasa bergen...<sup>45</sup>

Ko'rinib turganidek, she'rda Xudoning avval yerda yashagani, so'ngra insonlarning qilgan salbiy ishlaridan bezib, osmonga ketgani haqida afsonaviy syujet berilgan. Bu orqali shoir yer yuzida insoniyat qilgan ishlarning juda yomon, kechirilmas ekanligini aytmoqchi bo'lgan va lirik subyekt dunyoga bo'lgan qarashini shu tarzda ta'sirli qilib yetkazib bera olgan.

S.Ibragimov she'riyatida Tangri (xudo, Alloh), Odam Ato va Momo Havo, payg'ambarlar (Muso, Muhammad, Iso, Nuh), farishtalar, parilar, devlar, g'oyib eranlar, Azozil, Iblis, Jabroil, Hazrati Xizr, Hakim Luqmon, Sulaymon podsho, Iskandar, mifologik hayvonlar va mifologik qushlar, suv, olov kabi mifologik atributlar muallifning badiiy g'oyasini ochib berishda poetik vazifa bajargan. Bu obrazlar shoirning invariant mavzularga qurilgan fikrlarini ifodalashda, muallif pozitsiyasini va shoirlik qarashini ifodalashda katta ahamiyatga ega.

*Vaqt obrazlari.* S.Ibragimov she'riyatida poetik obrazlarning yaratilishida ajratib ko'rsatishga loyiq o'ziga xosliklar mavjud. Vaqtga oid birliklar orqali shoirning falsafiy fikrlari, dunyoga munosabati va his-tuyg'ularining o'ziga xos xususiyatlari ifodalangan. Shuningdek, muallifning shaxsiy kechinmalari ham vaqtinchalik obrazlar bo'lmish fasllar, psixologik va davriy vaqt birliklari orqali ochib berilgan.

*Tarixiy obrazlar.* San'atning barcha turlariga xos bo'lgan shunday obrazlar borki, ular teatrdan, kinoda va adabiyotda katta yutuqlarga erishgan. Mardligi, unutilmas qahramonligi bilan nafaqat o'z xalqiga, balki butun olamga dong'i ketgan siymolar juda ko'p.

*Ornitonimik obrazlar.* Lirikada ichki kechinmalarni ifodalashda poetik obrazlarga ko'p murojaat qilinadi. Chunki lirik qahramonning ruhiy-psixologik holatini, subyektiv qarashlarini va hayotga bo'lgan munosabatini ifodalashda obyektiv obrazlar katta ahamiyatga ega.

Izlesem, tappayman baǵ arasınan –  
Búlbilim, senbediń hawazı sınıǵan?<sup>46</sup>

Bulbulning go'zal, gullab-yashnagan joylarda sayrashini va tinchlikda hayot kechirishini bilgan har qanday inson shoirning subyektiv fikrlarini anglaydi. Bu ikki she'rda ham bulbul obrazi bilan birga bog' metaforasi qo'llanilib, ular yaxlit poetik ma'no hosil qilgan va lirik qahramonning hayot haqidagi qarashlari kuchli lirizm bilan bayon etilgan. Qushlar obrazi S.Ibragimov lirikasida lirik qahramonning ichki

<sup>45</sup> Ибрагимов С. Таңдамалы қосықлар. – Нөкіс: Билим, 2016. – Б. 322.

<sup>46</sup> О'sha manba. – Б. 141.

tugʻyonlarini tasvirlashda yetakchilik qiladi. Shoir qushlar obrazining klassik adabiyotdagi va folklordagi ramziy maʼnolarini qoʻllash bilan birga oʻzining ijodiy qarashlarini moslab, qushlar obraziga yangicha poetik boʻyoqlar bera olgan.

Uchinchi bob **“Lirik subyekt va lirik obyektning ifodalashda individual uslubning ahamiyati”** deb nomlanib, bobning **“Sagʻinbay Ibragimov lirikasida shakliy izlanishlar va janriy rang-baranglik”** deb nomlangan birinchi faslida erkin sheʼrlarda mazmun va shakl birligini S.Ibragimov ijodi misolida tahlil qildik.

Shoir sheʼriyatiga chuqur tahlil qilib qaraganimizda tematik jihatdan turlicha ekanligining guvohi boʻlamiz va didaktik, falsafiy, meditatif fikrlarga qurilgan. Har bir sheʼr satrlarida chuqur falsafiy mazmun: yaxshilik va yomonlik, inson va tabiat oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar, yuksak insoniy fazilatlar va hayot qonunlarining oʻzgaruvchanligi beriladi. Buni quyidagi satrlar misolida koʻrishimiz mumkin:

Táñirimniñ bir ádilligi –  
jamanlıqtan tiksınbegen bendesın  
jaqsılıq aldında diz shóktiredi<sup>47</sup>.

Sheʼrda lirik qahramonning ichki kechinmalari, uning Tangri bilan yaqinligi, unga boʻlgan ishonchlari uch qatorli sheʼrga joylashtirilib berilgan. Bir butun fikrni berishda sheʼrning shakliy xususiyati alohida poetik vazifani bajarib turibdi. Bunda fikr oqimi koʻkrakdan chiqib avj olib boradi va shoirning yakka dunyoga boʻlgan qarashi ixcham shaklga joylashtirilgan holda oʻquvchiga taʼsir etadi. Yomonlik va ezgulikni qarama-qarshi qoʻyish orqali shoir oʻz fikrining oʻtkirligi va emotsional taʼsirchanligini yanada oshirgan. Satrlarda shoirning hayotdan chiqargan xulosasi – individual tamoyillari qisqa va loʻnda satrlarda, dabdabali oʻxshatishlarsiz, sodda soʻzlar yordamida ifodalangan. Bunday jozibali shakl sheʼrning mazmunini ochib berishga ijobiy taʼsir etgan.

Qoraqalpoq lirikasida nasr va sheʼriyatning janr xususiyatlariga xos belgilarni oʻzida mujassam etgan sheʼriy asarlar oraliq shakllar deb atalib kelinmoqda. Bu shaklning asosiy belgisi – bu asarda sheʼriyat va nasr chegarasidagi tuygʻularning bayon etilishi. Bunda lirik subyektning ongida, koʻnglida kechayotgan tuygʻular kengroq bayon etiladi. S.Ibragimov lirikasida bunday shakldagi sheʼrlarni ham keng tarzda uchratish mumkin. Shoir bunday sheʼrlarni maʼlum bir voqea asosida yozadi va oʻsha voqeaga oʻz munosabatini bildirishga intiladi.

Qulazıǵan kewil úyin toltıradı suwıqlıq.  
Ay tutilǵan aqshamı sen tentireyseñ – el jıraq.  
Suwdan shıǵıp, tuyaqları topıraq shashıp (buwlıǵıp  
nápesinen jım-jirt túnnıñ) bádár ketti argımaq –  
quyırıq-jalı, quyırıq-jalı, quyırıq-jalı bir qushaq!<sup>48</sup>

Yuqoridagi satrlar bir-biri bilan mazmun va shakl jihatidan mustahkam bogʻlangan. Lirik qahramon oʻzining ichki tuygʻularini ifodalashda metaforik obrazlardan foydalanadi. Argʻimoq – ikki oshiq oʻrtasidagi yetib boʻlmaydi, iqbol timsolida berilgan. Uni sira tutib boʻlmaydi. Shuning uchun lirik qahramon va uning sevgilisi koʻnglida chegaralanmaydigan darajada dardlar oqimi yuzaga kelgan.

<sup>47</sup> Ибрагимов С. Таңламалы қосықлар. – Нөкис: Билим, 2018. – Б. 56.

<sup>48</sup> Оʻsha manba. – Б. 59.

Bu dardlar oqimi fikr oqimi bilan birlashib lirikadagi «qoliplar»ga sig‘maydi. Natijada nasrda shakllangan erkinlikka intilib, oraliq shaklni hosil qiladi. Bunda qatorlar bir-biri bilan mantiqiy bog‘langan tushib bir butun asarni hosil qiladi. Intonatsiya ham shunga yarasha uzluksiz, izchillikda bo‘ladi. Asardagi qahramonning harakatlari bilan parallel tarzda arg‘imoqning ham harakatlari tasvirlanadi. Buni kichik hajmli epizod sifatida olishimiz mumkin. Bunday epizodlar lirik qahramon tuyg‘ularini kuchaytirib berishga hissa qo‘shgan. Shuningdek, shoirning nasriy she‘rlari ham mavjud bo‘lib, jamoaviy “Ush tamir” to‘plamida e‘lon qilingan va o‘zining shaxsiy to‘plamlariga kiritilmagan<sup>49</sup>.

S.Ibragimov ijodida bu shakl orqali badiiy mazmunni yetkazib berishda muallifning individual uslubiy xususiyatlari ko‘zga tashlanganini ko‘ramiz. Shoirning ikkiliklarida fikr erkin berilib, shunga yarasha shakl ham erkin bo‘ladi. Shu sababli ham bo‘g‘in sonlariga, qofiyalarga e‘tibor qaratilmaydi, she‘rning poetik mazmuni va badiiy fikr ustuvor o‘ringa qo‘yiladi. Bu orqali shakldan ko‘ra mazmun yetakchilik qiladi degan fikrdan yiroqmiz. Shoir bu ikki dialektik birlik o‘rtasidagi aloqani ta‘minlashda o‘zining ijodiy usullaridan mohirona foydalanadi, ya‘ni satrlar orasida sintaktik aloqa kuchli bo‘lib, ikki satrdagi so‘zlar birlashib bir semantik va sintaktik birlikni – gapni hosil qiladi. Masalan:

Peshmanniñ kepsheindegi ılay beline  
salmaq bolsa – imarat shala qaladı<sup>50</sup>.

Qo‘shma gap shaklidagi bu ikkilikda fikrlar ketma-ketligi uzun chiziqcha orqali ajratib berilgan. Chiziqchaning emotsional-ekspressiv vazifasidan badiiy asarlarda keng foydalaniladi. U ajratuvchi, to‘xtalish belgisi bo‘lib, so‘zlovchining fikrini qisqa, lo‘nda, uslubiy va intonatsion jihatdan aniq tushunilishini ta‘minlaydi. Shuning uchun shoir o‘z fikrini o‘tkirlashtirish maqsadida uzun chiziqchadan uslubiy talabga ko‘ra foydalangan. Biz tahlil qilayotgan ikkilikda fikr butunlay metaforalashgan. Shoir oddiy peshmon (usta) va uning ish jarayoni haqida gapirgandek tuyulgani bilan aslida muallifning hayotga bo‘lgan qarashlari bayon etilgan. Ustani – inson, kosasidagi loyni – dard (sinovlar), imoratni – umr deb tushunsak, insonga dardlar (sinovlar) og‘irlik qilsa, inson ular oldida ojiz qolsa, yashashi qiyinlashishini anglaymiz. Shoir mana shunday katta falsafiy ma‘noni kichik she‘r shakli bo‘lgan ikkilikka mahorat bilan joylay olgan.

Qoraqalpoq lirikasida S.Ibragimov ijodida uchliklarning eng yaxshi namunalarini uchratish mumkin. Shoir bu janrga mansub she‘rlarida turli mazmundagi, turmushda uchraydigan holatlar, lirik qahramonning ko‘ngil kechinmalari, his-tuyg‘ularini jamlab berishga intilgan.

Men qolıma alğan güller solğanı,  
men qolıma alğan qustıñ ólgeni –  
awır qátelevi edi ómirdiñ<sup>51</sup>.

Shoir gul, qush obrazlari misolida inson hayotidagi xatolar, uning shaxsiy taqdirigagina ta‘sir etib qolmasdan, unga tutash bo‘lgan insonlar taqdiriga ham daxldor ekanligini yozadi. Qo‘shiq 11-11-12 tarzidagi bo‘g‘in o‘lchovlariga ega.

<sup>49</sup> Ибрагимов С. Қосықлар. // Үш тамыр. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1990. – Б. 136-139.

<sup>50</sup> Ибрагимов С. Таңламалы қосықлар. – Нөкис: Билим, 2016. – Б. 210.

<sup>51</sup> O‘sha manba. – B. 83.

Intonatsiya va ritm asarning mazmunini kuchaytirishga xizmat qiladi. Anaforalarning qo'llanilishi lirik qahramonning psixologik holatini yoritishga alohida hissa qo'shgan.

Kichik lirik janrlar ichida to'rtliklar qoraqalpoq poeziyasida eng unumli qo'llaniladigan va keng tarqalgan shakl hisoblanadi. To'rtliklar tuzilishi jihatidan to'rt qatordan iborat bo'lib, shu to'rt qatorning o'zida fikr-mulohaza berilishi kerak.

Bir adam Aspanniñ aldında ázzi –

Aspan jaygaspasa iqtıqatına.

Bir adam Záminniñ üstinde ázzi –

Zámin jaygaspasa iqtıqatına...<sup>52</sup>

S.Ibragimovga tegishli to'rtlikda oddiy shakl tanlangan. So'zlarning takrorlanganini ko'rishimiz mumkin. Biroq, mazmun jihatidan juda oddiy mazmun deb baholay olmaymiz. Chunki, inson va olam o'rtasidagi aloqaning, shaxs konsepsiyasining o'ziga xos ko'rinishi bu she'rda tasvirlangan. Azaldan dunyoda mavjud bo'lgan Osmon va Yer o'rtasidagi qarama-qarshilik she'rda butunlay o'z kuchini yo'qotib, u inson erkiga bog'liq tasvirlangan va insoniyat uchun yashash muhiti sifatidagina emas, erkinligi hayot kechiradigan chegara sifatida bayon etilgan.

Qoraqalpoq she'riyatida o'zining uslubiy o'ziga xosligi bilan boshqa ijodkorlarga o'xshamagan S.Ibragimov she'riyatida kichik lirik shakllar mazmun-mohiyati va shakliy-struktur tuzilishi jihatidan isloh qilinib, jahon adabiyotiga xos belgilarni o'zida mujassam etdi. Shuning uchun ham, biz shoir S.Ibragimovni qoraqalpoq milliy she'riyatidagi kichik lirik shakllarning ustasi, rivojlantiruvchisi deb hisoblasak xato bo'lmaydi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli **“Modernistik poeziyada lirik subyekt”** deb nomlanadi. Ushbu faslda shoir she'riyatidagi modern uslublar masalasi o'rganiladi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangilanishlar adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazib, mazmun va shakl jihatidan an'anaviy she'riyatdan butunlay farq qiladigan asarlar nashr etila boshlandi. Bu kabi asarlar turkiy xalqlar adabiyotshunosligida modern poeziyaning shakllanishiga olib keldi.

Qoraqalpoq adabiyotida modernizm oqimi XX asrning oxirlaridan boshlab paydo bo'ldi. Adabiyotimizda modernizmning namunalari yozuvchi Sh.Seyitovning nasriy, shoir S.Ibragimovning she'riy asarlarida ko'rinmoqda<sup>53</sup>. Ayniqsa, S.Ibragimov ijodidagi modernizm belgilari haqida olimlar tomonidan adabiyotshunoslikda bir qator ijobiy fikrlar bildirilgan<sup>54</sup>. Dastlabkilardan bo'lib olim J.Sag'idullayeva S.Ibragimov she'riyatidagi modernistik sifatlar haqida ilmiy fikrlarini bildirib o'tdi va “S.Ibragimovning “Beshinchi fasl” (“Besinshi máwsim”) to'plamidagi she'rlarning (hatto, to'planning nomining) yangicha yo'nalishga xos ekanligi, ularning poetik asosi, o'ziga xos uslubi, tasvirlash va mazmun rejasi, xullas, tasvirlash tizimi badiiy obraz yaratishning yangicha uslubi ekanligidan darak beradi”<sup>55</sup> deb yozadi.

<sup>52</sup> Ибрагимов С. Жер менен аспанның аралығында. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1990. – Б. 67.

<sup>53</sup> Оразымбетов Қ., Мәтякубова Г. Әдебиет – ҳақыйқатлықтың көркем сәўлеси (әдебий сәўбет). // Өмиўдәрья. 2014. №1. – Б. 40.

<sup>54</sup> Járımbetov Q. Ádebiyattanıwdan sabaqlar. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2012. – Б. 83; Сағыйдуллаева Ж. С.Ибрагимов поэзиясының модернистлик сыпатлары. // Түркий халықлар әдебиятының гейпара мәселелери (Илимий мийнетлер топламы). – Нөкис, 2004. – Б. 75-76.

<sup>55</sup> Сағыйдуллаева Ж. С.Ибрагимов поэзиясының модернистлик сыпатлары. // Түркий халықлар әдебиятының гейпара мәселелери (Илимий мийнетлер топламы). – Нөкис, 2004. – Б. 76.

Amerikalı adabiyotchi Aleksandr Genis shunday deb yozadi: “Modernizm obyekt bilan emas, subyekt bilan shug‘ullana boshladi”<sup>56</sup>. S.Ibragimov she‘riyatida lirik subyektning ruhiy qiyofasi mahorat bilan tasvirlanadi. Masalan:

Kelesen kókjiyekti qolına alıp.  
Men ot penen suwdın parqın joytaman –  
átirapımdı endi bolmaydı tanıp,  
barlıq shegaralar tústi qaytaldan.

Eger men erterek kóre alğanımda  
aq ráń sıngenin qara ráńge –  
ózimdi baspas-em jerdın tıǵına,  
jer mes bolıp turıp jarılıp ketkeninde...

tagı bir máwrit bar – ol máwrit barmız  
topıraqta, otta, suwda, giyada...<sup>57</sup>

She‘rda eng birinchi bo‘lib lirik qahramonning afsusini anglaymiz. U ufqni qo‘liga olib kelayotgan ikkinchi bir qahramonga bo‘lgan o‘pkasini, oz-moz g‘azabini bildiradi. Bunda biz taqdirga tan bergan lirik subyektini emas, qiyinchiliklardan qaytmas, qattiqqo‘l, sinovlarga bardoshli inson qiyofasini ko‘ramiz. Tabiat birliklari bo‘lgan tuproq, o‘t, suv va giyoh detallari orqali yaratilish, olam tuzilishining mayda bo‘laklari ham inson taqdirida, hayotida hal qiluvchi o‘rin tutishini kuzatamiz. Ijodkor qalbida jo‘sh urayotgan, yurak kengliklariga sig‘may, she‘rga aylangan satrlar orqali muallif ruhiy holatini anglashda obrazlar katta ahamiyatga ega. Shuni ham aytib o‘tish kerak S.Ibragimovning modernizmga, postmodernizmga xos she‘rlarida tasavvufiy qarashlarga qurilgan asarlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Shoir S.Ibrogimovning ayrim she‘rlari tinish belgilariga ega emas. Ayrim o‘rinlarda haddan tashqari ko‘p to‘xtalish belgilarining qo‘llanilishi ham lirik qahramonning psixologik kechinmalarini, estetik his-tuyg‘ularni va emotsionallikni chuqurroq ochib berishga xizmat qiladigan omillarning biri sifatida ayrim to‘xtalish belgilarining haddan tashqari ko‘p qo‘llanilishini ham aytish mumkin. Xulosa qilib aytganda, modernistik oqimdagi she‘rlarda mazmunan mavhumlikka asoslangan bo‘lib, lirik subyektning o‘ziga xos ruhiy qiyofasi poetik obrazlar yordamida ochib beriladi. Lirik subyektning psixologik holati, she‘r o‘lchovi, shakliyl rang-baranglik va grammatik qoidalarga bo‘ysunmaslik modern she‘riyatiga xos tamoyillar sifatida qaralishi mumkin.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli **“Shoir she‘riyatida mualliflik punktuatsiyasining badiiy xizmati”** deb nomlanadi. Ushbu faslda shoir she‘riyatidagi muallif punktuatsiyasi masalasi o‘rganiladi.

So‘nggi vaqtlarda fanda “mualliflik punktuatsiyasi” tushunchasi, ya‘ni ma‘lum bir muallif tomonidan tinish belgilarining odatdagi qoidalariga bo‘ysunmay, unga amal qilmagan holda individual qo‘llash holati keng tarqalmoqda. Mualliflik punktuatsiyasi – bu tinish belgilarining asosiy vazifasidan uzoqlashmagan holda faqat

<sup>56</sup> Йўлдошева М. Ҳозирги ўзбек модерн шеърятининг асосий хусусиятлари: Филол. фан. номз... дис.автореф. – Тошкент, 2004. – Б. 10.

<sup>57</sup> Ибрагимов С. Таңламалы қосықлар. – Нөкис: Билим, 2016. – Б. 332.

bir muallifning individual ijodida uchraydigan tinish belgilarining yig'indisidir. Qoraqalpoq adabiyotida mualliflik punktuatsiyasiga ega shoirlar sifatida Sh.Seyitov, S.Ibragimov va B.Genjemuratovlarni aytib o'tishimiz mumkin. Bu shoirlar ijodida ayrim yakka va ustma-ust qo'yilgan tinish belgilarining punktuatsion qoidalarga bo'ysunmay qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa poetik jihatdan she'rning badiiyligiga ta'sir etib, emotsional-ekspressivlikni oshiradi va obrazlilikni hosil qiladi.

Chiziqchada chegaralash, tasdiqlash, emotsionallikni va gap bo'laklarining mustaqilligini ta'minlash kuchliroq bo'ladi. Chiziqcha gapning ma'lum bir qismini boshqa qismidan ajratib ko'rsatish yoki yaqinlashtirish uchun, so'zlar orasidagi ma'noviy-sintaktik munosabatlarni aniqlash uchun ham ishlatiladi. Masalan:

Ag'in suw kesilse – sharam ne edi,  
jaǵıwlı ot óshse – shıdamım kerek.  
Óz gúrkemde shah hám gáda qalaman<sup>58</sup>.

Berilgan satrlardagi chiziqchalarni vergul bilan almashtirish mumkin. Asosan, shart ma'nosini bildiradigan qo'shma gaplar orasiga vergul qo'yiladi. Biroq, shoir o'z fikrini yanada ta'sirli qilib yetkazish maqsadida qisqa pauzadan, ya'ni chiziqchadan foydalangan.

Qara miltıq kimniń peshinen shıǵıp,  
piltesine onıń kim ot basadı –  
adam degen ne ol (bir oq atılsa –  
issiz-tuǵıyansız kete beredi)<sup>59</sup>

S.Ibragimovning ijodiy uslubiga xos bo'lgan uzundan-uzoq fikrlar chiziqchalar orqali ixchamlashtirib berilgan. To'rt qatorli she'rda bir fikr so'z etilib, har qator bu fikrning o'tkirlashib, avj olib (gradatsiyalanib) borishini ta'minlagan. Agar biz punktuatsion qonuniyatlarga tayanadigan bo'lsak, yuqoridagi uch qatorda chiziqcha o'rniga so'roq belgisi qo'yilishi lozim. Sababi, bu qatorlarda so'roq olmoshlari (kim (ning), ne) qatnashgan. Biroq, shoir o'z fikrlarining oddiy ohang bilan o'qilishini istamaydi, unda chiziqchalar hayotiy hodisalar haqida muallif g'oyasini berishning bir vositasiga aylanadi. Birgina "Yer bilan osmonning oralig'ida" (1990) to'plamining o'zida 345 joyda chiziqcha qo'llanilganini ko'rish mumkin. Bu belgini shoir ijodiga xos "mualliflik punktuatsiyasi" deb atasak ham bo'ladi. Olima A.Dosimbetova: "Lirik kechinmalarning tabiatiga, qahramon obrazining psixologik holatiga bog'liq badiiy asarda gap tuzilishining o'ziga xos shakllari poetik-sintaktik konstruksiyalar yuzaga keladi"<sup>60</sup> deb yozgan edi. Shuning uchun shoir uzun chiziqchalarga alohida kompozitsion vazifa yuklaydi. Shoirning yuqoridagi satrlarida chiziqcha belgisi tushuntirish vazifasida qo'llanilgan va muallifning asosiy aytmoqchi bo'lgan g'oyasini chuqurlashtirib bergan.

Shuningdek, bu faslda ritorik savol, undov belgisi, nuqtali vergul, undov, so'roq va ko'p nuqta takrorlanib qo'llanishi, qavs singari tinish belgilariga to'qталib o'tildi.

Umumlashtirib aytganda, shoirlarning asarlarida tinish belgilarining qo'llanilishini ikki yo'nalishga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

<sup>58</sup> Ибрагимов С. Таңдамалы қосықлар. – Нөкис: Билим, 2016. – Б. 47.

<sup>59</sup> O'sha manba. – B. 209.

<sup>60</sup> Dosimbetova A. Adebeyatta kórkemlew quralları. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2017. – B. 9.



1. Badiiy punktuatsiya – tinish belgilarining lingvistik qonuniyatlar – ma’nolilik, tuzilish va ohang tamoyillari asosida qo’yilib, asosiy punktuatsion vazifalarni bajarishi. Qoraqalpoq adabiyotining taniqli vakillari Sh.Seyitov, S.Ibragimov va B.Genjemuratov ijodida tinish belgilarining kerakli joyga qo’yilgani va punktuatsion qoidalarining saqlanganini tahlil qilib o’tdik.

2. Mualliflik punktuatsiyasi – yakka yozuvchi-shoirlar asarlaridagi tinish belgilarining yig’indisi bo’lib, shu muallif ijodida tinish belgilari keng tarzda qo’llanilib, ularga alohida poetik vazifa yuklanadi. Shaxsiy mualliflik punktuatsiya xususiyatlarini biz yuqorida tahlil qilgan shoirlar ijodida ham uchratishimiz mumkin. Ularning asarlarida tinish belgilari asosiy vazifasidan uzoqlashmagan holda emotsional-ekspressiv ma’no berish, she’rlarning ta’sirchanligini kuchaytirish, obrazlilikni oshirish, muallif g’oyasini ochib ko’rsatish kabi badiiy faoliyatda ham qo’llanilgan.

## XULOSA

Dissertatsiyada bildirilgan ilmiy-nazariy qarashlar hamda Sag’inbay Ibragimov lirikasini atroflicha tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Lirik subyekt va lirik obyekt – o’zaro dialektik aloqadorlikka ega bo’lgan va muallifning ruhiy-psixologik holatini ifodalovchi adabiy-estetik kategoriyalar. Lirika his-tuyg’ularga asoslangan janr bo’lganligi uchun muallif o’z ichki olamida yuz bergan tuyg’ularnigina lirik satrlarga tushiradi. Bunda uning subyektiv qarashlari katta ahamiyatga ega. Yaratilgan badiiy asardagi lirik qahramon, shubhasiz, muallifning bir-yarim kayfiyatini o’ziga singdirib oladi. Shu sababli, lirik qahramonni muallifdan butunlay ajratib bo’lmaydi.

2. Sag’inbay Ibragimov milliy adabiyotimizda o’z ijodiy maktabini yarata olgan shoirlardan biri bo’lib, lirik kechinmalarini tasvirlab berishda va lirik qahramon obrazini yaratishda o’ziga xos usullarga ega. Shu bilan birga muallifning shaxsiy subyektiv qarashlari, hayot tajribasi, yosh xususiyatlari lirik qahramonning ruhiy-psixologiyasiga, uning ruhiy holatiga o’z ta’sirini o’tkazadigan omillardan hisoblanadi.

3. S.Ibragimov ijodida lirik subyektning psixologik evolyutsiyasi ikki bosqichga ega: yoshlik yillaridagi ijodida meditatif, intellektual-falsafiy yo’nalishdagi she’rlar yetakchilik qilgan bo’lsa, so’nggi davrda e’lon qilingan asarlarida diniy-falsafiy, didaktik va tasavvufiy mazmundagi asarlar ko’pchilikni tashkil etadi.

4. S.Ibragimov ijodida lirik qahramon subyektiv fikrlar orqali namoyon bo’luvchi sifatida, lirik subyektning muallif obrazi bilan birlashgan holda, ramziy ma’nolar, til osti usullari yordamida, shoirning ijodiy laboratoriyasida tekstologik qayta ishlashlar asosida lirik qahramonning bir she’rda bir necha o’zgarishlarida, bevosita subyektiv sifatidagi o’y-fikrlarda, tasavvuf ta’siridagi yoki meditatif tabiatdagi lirik subyekt tarzida ifodalangan.

5. Lirik qahramonning his-tuyg’ularini, subyektiv qarashlarini o’tkirlashtirib berish va asarning emotsional ta’sirchanligini oshirish maqsadida S.Ibragimov lirikasida mikrosyujetlar mahorat bilan qo’llanilgan.

6. Lirik qahramonning ruhiy holatini ochib berishda lirik obyektning ta’siri katta, ba’zan obyekt obraz darajasiga ko’tariladi va badiiy asarning tarkibini to’ldiradi.

S.Ibragimov lirikasida folklor (doston, afsona, ertak qahramonlari), diniy-mifologik (Tangri, Xudo, Alloh), Odam Ato va Momo Havo, paygʻambarlar (Muso, Muhammad, Iso, Nuh), farishtalar, parilar, devlar, gʻoyib eranlar, Azozil, Iblis, Jabroil, Hazrati Xizr, Hakim Luqmon, Sulaymon podsho, qadimgi yunon mifologiyasining mashhur qahramonlaridan Sizif, Odissey, Dedal, Ikar, Circeya, Prometey, Zevs, Gerakl, Yanus, Orfey, Evridika, Aid, mifologik hayvonlar (ajdarho, boʻri), mifologik qushlar (feniks, semurgʻ) va mifologik atributlar (suv, olov), vaqt elementlari (kuz, qish, bahor, tong, tun), tarixiy (Janna Dʻark, Mark Avreliy, Suqrot, Yan Gus, Shovdirboy Seyitov) va ornitonimik (qushlar) obrazlar guruhi mavjud boʻlib, ular lirik qahramonning ruhiy holatini ochib berishda badiiy vazifani bajargan.

7. Lirik subyekt va lirik obyektни ifodalashda poetik shakllar ham ahamiyatga ega. Ular badiiy fikrni, lirik qahramon tuygʻularini teranroq yetkazib berishni taʼminlaydi. S.Ibragimov lirikasida oraliq va kichik shakldagi sheʼrlar keng tarzda qoʻllanilgan. Shu bilan birga shoir sheʼriyati toʻligʻicha erkin sheʼrlardan iborat. Sababi, boshqa shoirlarning ijodida aralash shakldagi erkin sheʼrlarni uchratsak, biz tahlil qilayotgan shoir ijodida sof erkin sheʼrlarning soni ancha darajada koʻp.

8. Erkin sheʼrlar his-tuygʻularni, lirik qahramonning ruhiy qiyofasini ochib berishning samarali usuli boʻlib Sagʻinbay Ibragimov ijodida yetakchilik qiladi.

9. Sagʻinbay Ibragimov – qoraqalpoq adabiyotida modernizmning, postmodernizmning boshlovchilaridan biri. Uning bu yoʻnalishdagi sheʼrlarida muallif qiyofasi yaxlit «men» emas, lirik subyekt ekzistensialistik xarakterga ega boʻlib kelgan.

10. Mualliflik punktuatsiyasi – ijodkor asarlarida keng qoʻllaniladigan, baʼzan lingvistik meʼyorlarga boʻysunmay, shoir pozitsiyasi va poetik talab natijasida qoʻyiladigan tinish belgilari majmui. S.Ibragimov mualliflik punktuatsiyasiga ega shoirlardan biri boʻlib, buni shoirning individual uslubi sifatida qabul qilish mumkin.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**САТБАЕВ АТАГУЛЛА БАХЫТЖАН УЛЫ**

**ОСОБЕННОСТИ ВЫРАЖЕНИЯ ЛИРИЧЕСКОГО СУБЪЕКТА И  
ЛИРИЧЕСКОГО ОБЪЕКТА В ЛИРИКЕ С.ИБРАГИМОВА**

**10.00.07 – Теория литературы,  
10.00.12 – Каракалпакская литература**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Нукус – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/Fil2361.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекский, русский, английский (резюме)) языках на веб-странице Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

Оразымбетов Куанышбай Келимбетович  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

Каримов Баходир Нурметович  
доктор филологических наук, профессор

Матимов Кошкарбай Генжебаевич  
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

**Ведущая организация:**

Институт узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «30» 09 2025 года в 11<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 при Каракалпакском государственном университете им. Бердаха. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч. Абдирова, дом1. Тел: (99861)223-59-25, факс: (99861)223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета им. Бердаха (зарегистрирована за № 361). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч. Абдиров, дом 1. Тел: (99861) 223-59-25.

Автореферат диссертации разослан «12» 09 2025 года.  
(Протокол реестра рассылки № 1 от «12» 09 2025 года).



[Signature] **З.У.Бекбергенова**  
и.о. председатель разового Научного совета  
по присуждению ученых степеней, доктор  
филологических наук, профессор

[Signature] **Ж.О.Танирбергенов**  
участный секретарь разового Научного совета  
по присуждению ученых степеней, доктор  
философии (PhD) по филологическим наукам,  
доцент

[Signature] **З.У.Бекбергенова**  
председатель Научного семинара при разовом  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор филологических наук (DSc),  
профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мировой литературе, особенно в поэзии, внутренние чувства человека, его духовный мир выражаются различными способами. Лирический субъект и лирический объект имеют важное значение в раскрытии душевных переживаний, происходящих в сознании и сердце человека, отношения поэта к миру.

В литературоведении мира, в том числе тюркских народов, мы встречаем разные взгляды на выражение лирического субъекта и лирического объекта. Несмотря на то, что по вопросу художественного произведения и его составных частей, творческой лаборатории поэтов, лирического субъекта и лирического объекта проведен ряд исследований, в каракалпакском литературоведении научных исследований в этом направлении мало. По этой причине в нашей национальной поэзии требуется научное обоснование особенностей выражения лирического субъекта и лирического объекта.

В воспитании будущего поколения гармонично развитыми личностями особое внимание уделяется литературе, то есть художественному слову. Потому что нет другого средства воспитания, которое могло бы сравниться с силой слов. Сегодня в нашей стране на уровне государственной политики уделяется внимание художественной литературе и повышению культуры чтения<sup>1</sup>. Наш уважаемый Президент Ш.Мирзиёев в своих выступлениях сказал: «Мы все хорошо знаем, насколько трудоемким, ответственным и почетным является труд вас, уважаемых творческих людей, которые считают смыслом и содержанием своей жизни воспевание человеческого сердца, его боли и забот, мечтаний и стремлений народа, любви и преданности Родине в уникальных словах, мелодиях и красках»<sup>2</sup>. Поэтому, наряду с историей нашей национальной литературы, возникает необходимость изучения творчества современных литературных деятелей нашего времени и оценки литературных произведений, создаваемых в современном литературном процессе, с литературно-критической точки зрения. Изучение лирики Сагинбая Ибрагимова, известного представителя каракалпакской литературы, системы образов в ней, содержания и формы, а также индивидуальных стилистических и методических изысканий также входит в число важных задач, ожидающих своего исследования.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасы Президентинин 2017-жыл 12-январьдағы «Китап Өнимлерин басып шығарыў ҳәм тарқатыў системасын раўажландырыў, китап оқыўды ҳәм китапқумарлық мәдениятин арттырыў және үгит-нәсиятлаў бойынша комиссия дүзиў ҳаққында»ғы Бийлиги. // Еркін Қарақалпақстан. 2017, 13-январь; Ўзбекистон Республикасы Президентинин 2017-жыл 13-сентябрьдеги «Китап Өнимлерин басып шығарыў ҳәм тарқатыў системасын раўажландырыў, китап оқыўды ҳәм китапқумарлық мәдениятин арттырыў және үгит-нәсиятлаў бойынша комплексли илажлар бағдарламасы ҳаққында»ғы Қарары. // Еркін Қарақалпақстан. 2017, 14-сентябрь; Ўзбекистон Республикасы Президентинин 2018-жыл 5-апрельдеги «Ўзбекистон Жазыўшылар аўкамының жумысын буннан былай да жетилистириў илажлары ҳаққында»ғы Қарары. // Еркін Қарақалпақстан. 2018, 7-апрель.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасы Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш халқимиз маънавий олами юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир» мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-3271 от 13 сентября 2017 «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и пропаганде культуры чтения», ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановление ПФ-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии Узбекистана – 2030», Постановление Президента Республики Узбекистан от 1 апреля 2024 года ПП-147 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности творческих школ,» 2020 год – Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 14 декабря №781 «Об утверждении Национальной программы развития и поддержки культуры чтения на 2020-2025 годы» и других нормативных актов, касающихся данной отрасли.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий I. «Формирование системы инновационных идей и их применение в развитии духовно-нравственного, культурного демократического, правового государства и информационного общества».

**Степень изученности проблемы.** В литературоведении существует множество научных работ, посвященных проблеме героя в лирических произведениях. В них одновременно изучались такие вопросы, как лирический субъект, лирический герой, образ поэта, лирическое «я», исполнительская лирика.

В мировом литературоведении проблема лирического субъекта и объекта изучалась в работах таких ученых, как Г. Гегель, В. Хализов, Г. КORTE, Ю. Тинянов, Л. Гинзбург, М. Бахтин, А. Калигин, Б. Корман, З. Кабдолов, Т. Шапай, а также анализировалась в дискуссионных и противоречивых исследованиях<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Гегель Г. Эстетика в 4-х томах. Том 3. – Москва: Искусство, 1971; Хализов В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999; Усы автор. Хализов В. Е. Лирика. // Введение в литературоведение. – Москва: Высшая школа, 2004; КORTE Г. Субъективность и лирическое Я. Постановка проблемы на примере поэтологий Готфрида Бенна, Томаса Клинга и Дурса Грюнбайна. // Zur Theorie des lyrischen Subjekts im Kontext der neueren Dichtung. Slavistik, 2015. – С. 16. [Электрон ресурс] <https://www.uni-trier.de> (24.06.2024); Тинянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. – Москва: Наука, 1977; Гинзбург Л. О лирике. – Ленинград: Советский писатель Ленинградское отделение, 1974; Бахтин М. М. Автор и герой. К философским основам гуманитарных наук. – Санкт-Петербург: Азбука, 2000; Калыгин А. Ранний Бахтин: эстетика как преодоление этики. Эго-персонализм, лирический герой и единство эстетических теорий. – Москва: РГО, 2007. Корман Б.О. Избранные труды. Теория литературы. – Ижевск: Издательство Удмуртского университета, 2006; Кабдолов З. Сөз өнері. – Алматы: Санат, 2007; Шапай Т. Шын жүрек – бір жүрек. – Алматы: Жазушы, 1999.

В теории узбекской литературы известные литературоведы И.Султон, Э.Худайбердиев, У.Хамдамов, С.Мели, Д.Курунов провели подробные исследования по этому вопросу в своих научных работах<sup>4</sup>.

